

**UZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

# **JZBEKISTAN**

## **LANGUAGE & CULTURE**

**TARJIMASHUNOSLIK**  
**TRANSLATION STUDIES**

2021 Vol. 1 (3)

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

**TARJIMASHUNOSLIK**

# **UZBEKISTAN**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**TRANSLATION STUDIES**

**2021 Vol. 1 (3)**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:**

Abdumajid Mamadaliyev

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Anvar Sayfullayev

**Mas'ul kotib:**

Mahmadiyor Asadov

### **Tahrir hay'ati**

Ziyodaxon Teshaboyeva, Qosimboy Ma'murov, Bahodir Xoliqov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Nurmurod Chiniqulov, Xulkar Turdiyeva, Oydin Tuychiyeva, Nigora Sulaymonova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

"O'zbekiston: til va madaniyat. Tarjimashunoslik" seriyasi – qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda tarjimashunoslik sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Tarjimashunoslik" seriyasi 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo‘i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

|                                |                      |
|--------------------------------|----------------------|
| <b>Editor-in-Chief:</b>        | Abdumajid Mamadaliev |
| <b>Deputy editor-in chief:</b> | Anvar Sayfullaev     |
| <b>Executive secretary:</b>    | Mahmadiyor Asadov    |

### **Editorial Board**

Ziyodakhon Teshaboeva, Kosimboy Mamurov, Bahodir Kholikov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Nurmurod Chinikulov, Khulkar Turdieva, Oydin Tuychieva, Nigora Sulaymonova.

### **About the Journal**

*Uzbekistan: Language and Culture. Translation Studies* series is an academic journal that publishes works in the field of comparative linguistics, literary and translation studies.

The journal is published twice a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

*Uzbekistan: Language and Culture. Translation Studies* series was launched in December 2021.

Alisher Navo‘i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balog’a” asari va unda frazeologizmlarning qo’llanilishi

Nigora Sulaymonova<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balog’a” asari va uning arab leksikografiyasida tutgan beqiyos o’rni haqida so’z boradi. Unda alloma Zamaxshariy tomonidan lug’atshunoslik sohasida yaratilgan o’ziga xos yangiliklar bayon etilgan. Jumladan, “Asosu-l-balog’a” asarida muallif tomonidan joriy etilgan yangiliklardan biri lug’atda so’zlarni ularning barcha o’zak undoshlarini hisobga olgan holda qat’iy alifbo tartibida joylashtirilishida ko’rinadi. Bu usulning joriy etilishi o’sha davrda lug’atlardan foydalanishni juda osonlashtirdi. Shuning uchun alloma arab lug’atshunosligida birinchi bo’lib alifbo tizimini yo’lga qo’ygan lug’atshunos sifatida e’tirof etilgan. “Asosu-l-balog’a”da Mahmud Zamaxshariy yana bir yangilikka qo’l urgan. U lug’atdagi so’zlarni o’sha davrda iste’molda bo’lgan jumla va iboralar tarkibidan ajratmagan holda bergan. Bu usul so’z ma’nolarini har tomonlama va batafsil izohlash imkonini bergan. So’zlarni izohlash uchun keltirilgan jumla va iboralar o’sha davr til xususiyatlarini, unda mavjud qonun-qoidalarni mukammal o’rganishda qo’l keladi.

Shuningdek, alloma “Asosu-l-balog’a” asarida lug’at maqolalaridagi bosh so’zlarni izohlashda illyustrativ material sifatida qator manbalar, jumladan, Qur’oni karim oyatlari, hadisi shariflar, frazeologik birikmalardan mohirona foydalangan. Maqolada “Asosu-l-balog’a” lug’atida qo’llanilgan frazeologizmlar haqida so’z yuritilib, ular turiga ko’ra ajratilgan. Lug’atda kelgan arab tilidagi frazeologizmlarning o’zbek tildagi ekvivalentlari berilib, tahlilga tortilgan.

**Kalit so’zlar:** Mahmud Zamaxshariy, “Asosu-l-balog’a” asari, lug’atshunoslik, izohli lug’at, lug’at maqola, bosh so’z, izoh, illyustrativ material, frazeologizm, frazeologik chatishma, frazeologik butunlik, frazeologik qo’shilma, arab tili, o’zbek tili.

<sup>1</sup> Sulaymonova Nigora Askaraliyevna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** sulaymonova@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0001-6575-8742

**Iqtibos uchun:** Sulaymonova, N.A. 2021. “Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balog’a” asari va unda frazeologizmlarning qo’llanilishi”. *O’zbekiston: til va madaniyat* 1 (3): 115-124.

### Kirish

Ilm-fan taraqqiyotida maxsus manba va adabiyotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sohaga oid ensiklopediya va lug'atlar muyyan fan tarmog'i rivojida alohida o'ringa ega. Shuning uchun ham ular yillar o'tgani sayin yanada qadrli bo'lib boraveradi. Shu ma'noda mashhur alloma Mahmud Zamaxshariyning lug'atshunoslikka oid asarlari bugungi kunda ham noyob ilmiy manba sifatida o'rganib kelinmoqda.

Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida "Asosu-l-balog'a" (أَسَاسُ الْبَلَاغَةِ), ya'ni "Balog'at asoslari" nomli lug'at alohida o'rin tutadi. Lug'at nafaqat allomaning lug'atshunoslikka oid asarlari orasida, balki butun arab lug'atshunosligida ham muhim ahamiyatga ega. Akademik A.Rustamovning fikricha, "Mahmud Zamaxshariy o'zining "Asosu-l-balog'a" asari bilan arab lug'atshunosligini bir necha pog'ona yuqori ko'targan" [Rustamov 1971, 12]. Husayn Nassorning ta'kidlashicha, Mahmud Zamaxshariy aynan shu asari bilan arab lug'atshunosligining to'rtinchi maktabiga asos solgan.

Ko'plab olimlar Mahmud Zamaxshariyning "Asosu-l-balog'a" asarini an'anaviy arab lug'atshunosligida tutgan o'rnini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borganlar. Tarixchi olim Hoji Xalifa o'zining "Kashfu-z-zunun" asarida "Asosu-l-balog'a" haqida shunday fikr bildirgan: "Kitob katta hajm, chuqur mazmunga ega bo'lib, u adab ilmiga oid asar hisoblanadi. Lug'at to'laligicha lug'aviy majozlar, so'zlarning badiiy-uslubiy xususiyatlari, balog'at ilmi sohiblari yaratgan iboralarning alohida va birga lug'at maqolalar tarkibida berishga bag'ishlangan" [Hoji Xalifa 1893, 89].

Arab adabiyotining yirik vakili Jurji Zaydon ham "Asosu-l-balog'a" asarining arab lug'atshunosligida tutgan o'rne beqiyos ekanligini ta'kidlagan holda shunday degan: "Asosu-l-balog'a" o'z uslubi bilan arab tilining muhim mo'jamidir. Chunki unda so'zning yakka o'zi kelganda, ibora va jumlar tarkibida kelganda qanday ma'no anglatishi haqida so'z yuritiladi. Asarda so'z sharhlanganda, uni qo'llash mumkin bo'lgan o'rinlar aniq ko'rsatilgan. Aynan shu boisdan ham asardan foydalanish g'oyatda foydalidir".

Misrlik olim Toha Roviyning aytishicha, "Asosu-l-balog'a" asari tuzilgan barcha lug'atlarning eng yaxshisidir. Lug'atda muallif so'zlarni jumlar tarkibida bergan holda ularni fasohat bilan izohlaydi. Qolaversa, so'zlarning haqiqiy va majoziy ma'nolarini ajratib bergan. U asl manba bo'lganligi uchun ham undan foydalanish darkor" [Fozil Solih as-Samaroiy 1970, 28].

Yirik sharqshunoslar, tilshunoslar, tarixchilar tomonidan

"Asosu-l-balog'a" asarining bu qadar yuqori baholanishiga sabab alloma Mahmud Zamaxshariyning lug'atshunoslik sohasiga kiritgan bir qator yangiliklaridir. Uning bu yangiliklaridan biri lug'atda so'zlarni ularning barcha o'zak undoshlarini hisobga olgan holda qat'iy alifbo tartibida joylashtirganligida ko'rinadi. Bu usulning joriy etilishi o'sha davrda lug'atlardan foydalanishni juda osonlashtirdi. Shuning uchun alloma arab lug'atshunosligida birinchi bo'lib alifbo tizimini yo'lga qo'ygan lug'atshunos sifatida e'tirof etilgan. U mazkur usulni dastlab hadislarda uchraydigan tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni izohlashga bag'ishlangan "al-Foiq fi g'aribi-l-hadis" lug'atida qo'llagan. Muallif asarda lug'at maqolalarni alifbo tartibida berishda bosh so'zning birinchi va ikkinchi undoshlariga qaragan. Biroq bosh so'zning uchinchi, to'rtinchi va beshinchi o'zak undoshlarida muallif alifbo tartibiga rioya qilmagan. Bu esa lug'atdan foydalanishda qiyinchiliklar tug'dirgan. Shu bois Mahmud Zamaxshariy o'zining navbatdagi asari – "Asosu-l-balog'a"da bu kamchilikni bartaraf etgan holda so'zlarning birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi o'zak undoshlarini hisobga olgan holda alifbo tartibida joylashtirgan. Bu yondoshuv lug'atshunoslikda muhim yangilik bo'ldi. Keyinchalik bu usul an'anaga aylandi, lug'atshunoslar tomonidan rivojlantirildi. Zamonaviy lug'atshunoslikda ham shunday usul qo'llanilmoqda.

"Asosu-l-balog'a"da Mahmud Zamaxshariy yana bir yangilikka qo'l urgan. U lug'atdagi so'zlarni o'sha davrda iste'molda bo'lgan jumla va iboralar tarkibidan ajratmagan holda bergan. Bu usul so'z ma'nolarini har tomonlama va batafsil izohlash imkonini bergan. So'zlarni izohlash uchun keltirilgan jumla va iboralar o'sha davr til xususiyatlarini, unda mavjud qonun-qoidalarni mukammal o'rganishda qo'l keladi.

Barcha turdagi lug'atni yaratishdan avval muallif so'z tanlash borasidagi muhim savolga javob topishi kerak, ya'ni lug'atga qanday so'zlar nimaga asoslanib kiritilishini belgilab beruvchi so'zlik tuziladi. Lug'at uchun so'z tanlash lug'at qanday maqsadlarda tuzilishi va kim uchun mo'ljallanganligiga bog'liq. Aynan shu savollar "Asosu-l-balog'a"ga nisbatan beriladigan bo'lsa, ularning barchasiga aniq javob asarning muqaddima qismida mavjud.

Mahmud Zamaxshariy yuqorida ta'kidlangan ikki usulni rivojlantirar ekan, maqsadi lug'atdan foydalanuvchilarga yengillik yaratish bo'lgan. Olim asarning muqaddima qismida ta'kidlashicha, u Tixam bozorlarini kezib, jome' masjidlarda bo'lib, so'zga chechan imomlar, xatiblar, notiqlar, va'z aytuvchilarning nutqlaridagi go'zal so'z va iboralarni tanlab olib, lug'atda ularning majmuasini yaratishga

erishgan [Az-Zamaxshariy 1998, 15]. Bu bilan alloma "Asosu-l-balog'a"da arab adabiy tilining fasohatini aks ettirishga harakat qilgan. Lug'atning muqaddima qismida muallif ta'kidlashicha, u bu usul yordamida so'zga chechan kishilar, yetuk adiblar yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Aynan shuning uchun Zamaxshariy o'z asarini "Asosu-l-balog'a", ya'ni "Balog'at asoslari" deb nomlagan.

Ma'lumki, fikrni go'zal ifodalash uchun so'z va iboralardan to'g'ri, o'rinli foydalanish lozim. Buning uchun kishi fasohat va balog'at ilmini mukammal egallashi talab etiladi. Bu borada Mahmud Zamaxshariyning "Asosu-l-balog'a" asari, shubhasiz, asosiy manba vazifasini o'taydi.

Lug'atda muallifning yana bir yutug'i shuki, u jumlar yordamida so'zning haqiqiy ma'nosini majoziy ma'nosidan ajratib beradi. Asarda izohlangan so'zlarning deyarli yarmi majoziy ma'noga ega. Bu esa o'quvchiga so'zni har tomonlama tushunish imkonini beradi.

Mahmud Zamaxshariyga mazkur asarni yaratishda uning tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix kabi sohalarda to'plagan bilim, ko'nikma va tajribalari yaqindan yordam bergan. Rus leksikograflaridan biri V.M.Belkinning fikriga ko'ra, "odatda o'z lug'atlarida arab tili leksikasining sofligini qayd etgan va uni kafolatlagan lug'atshunoslar grammatik masalalar bilan shug'ullanmaganlar. Faqatgina Mahmud Zamaxshariy ham grammatika, ham lug'atshunoslikda original asarlar yarata olgan" [Belkin 1975, 164].

Keyinchalik bu usul an'anaga aylandi, lug'atshunoslar tomonidan rivojlantirildi va hozirgi kunda ham qo'llanilmoqda.

"Asosu-l-balog'a"da Mahmud Zamaxshariy yana bir yangilikka qo'l urgan. U lug'atdagi so'zlarni o'sha davrda iste'molda bo'lgan jumla va iboralar tarkibidan ajratmagan holda bergan. Bu usul so'z ma'nolarini har tomonlama va batafsil izohlash imkonini bergan. So'zlarni izohlash uchun keltirilgan jumla va iboralar o'sha davr til xususiyatlarini, qonun-qoidalarini mukammal o'rganishda qo'l keladi.

Istalgan turdagi lug'atni yaratishdan avval muallif so'z tanlash borasidagi muhim savolga javob topishi kerak, u ham bo'lsa, lug'atga qanday so'zlar nimaga asoslanib kiritiladi. Lug'at uchun so'z tanlash lug'at qanday maqsadlarda tuzilishi va kim uchun mo'ljallanganligiga bog'liq [Filin 1957, 36-37].

Aynan shu savollar "Asosu-l-balog'a"ga nisbatan beriladigan bo'lsa, ularning barchasiga aniq javob muqaddimada mavjud.

Mahmud Zamaxshariy yuqorida ta'kidlangan ikki usulni

rivojlantirar ekan, maqsadi lug'atdan foydalanuvchilarga yengillik yaratish edi. Olim asarning muqaddima qismida ta'kidlashicha, u Tixam bozorlarini kezib, jome'-masjidlarda bo'lib, so'zga chechan imomlar, xatiblar, notiqalar, va'z aytuvchilarning nutqlaridagi go'zal so'z va iboralarni tanlab olib, lug'atda ularning majmuasini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan [Az-Zamaxshariy 1998, 15]. Bu bilan Mahmud Zamaxshariy "Asosu-l-balog'a" da arab adabiy tilining fasohatini aks ettirishga harakat qilgan. Lug'atning muqaddima qismida yozishilicha, muallif bu usul bilan u so'zga chechan kishilar, yetuk adiblar yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Aynan shuning uchun u o'z asarini "Asosu-l-balog'a", ya'ni "Balog'at asoslari" deb nomlagan.

Ma'lumki, fikrni go'zal ifodalash uchun so'z va iboralardan to'g'ri va o'rinli foydalanish lozim. Buning uchun kishi fasohat va balog'at ilmini mukammal egallashi talab etiladi. Bu borada Mahmud Zamaxshariyning "Asosu-l-balog'a" asari, shubhasiz, asosiy manba vazifasini o'taydi.

Lug'atda muallifning yana bir yutug'i shuki, u jumlar yordamida so'zning haqiqiy ma'nosini majoziy ma'nosidan ajratib beradi. Asarda izohlangan so'zlarning deyarli yarmi majoziy ma'noga ega. Bu esa o'quvchiga so'zni har tomonlama tushunish imkonini beradi.

Mahmud Zamaxshariyga mazkur asarni yaratishda uning tilshunoslik, lug'atshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix kabi sohalarida to'plagan bilim va tajribalari yaqindan yordam bergan. V.M.Belkinning fikriga ko'ra, "odatda o'z lug'atlarida arab tili leksikasining sofligini qayd etgan va uni kafolatlagan lug'atshunoslar grammatik masalalar bilan shug'ullanmaganlar. Faqatgina Mahmud Zamaxshariy ham grammatika, ham lug'atshunoslikda original asarlar yarata olgan" [Belkin 1975, 164].

Lug'atning to'liqligi va uning leksik jihatdan boyligiga ishora qiluvchi omil bu uning manbalaridir. Unda u yoki bu so'zning qo'llanilish xususiyatlarini ko'rsatish, izohlanayotgan so'zning stilistik, qolaversa, ma'no xususiyatlarini ochib berish maqsadida badiiy, folklor adabiyotlardan misollar keltiriladi. "Asosu-l-balog'a" da so'zlarning batafsil va mukammal izohini berish maqsadida tasdiqlovchi misollardan keng foydalangan. Bunda asos bo'lgan manbalar Qur'oni karim, Hadisi shariflar, Mahmud Zamaxshariygacha va uning davrida yashab ijod etgan yetuk shoirlarning nazmiy asarlaridan olingan parchalar, frazeologizmlar, maqollar.

Yuqorida qayd etganimizdek, Mahmud Zamaxshariy o'z asarida so'zlarni izohlashda muhim manba – frazeologizmlardan mohi-

rona foydalangan. Shu bois ham V.M.Belkin "Mahmud Zamaxshariy ning "Asosu-l-balog'a" asari an'anaviy arab lug'atshunosligining umumiy rivojlanish yo'lidan biroz o'zgacharoq bo'lib, u frazeologik lug'atning bir turi hisoblanadi" [Belkin 1975, 169], deb ta'kidlagan.

Shu yerda yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish joiz. Mahmud Zamaxshariy "Asosu-l-balog'a"da so'z ma'nosini frazeologizm yordamida izohlagan bo'lsa, ayrim hollarda keltirilgan frazeologizm qanday ma'no anglatishini berib ketgan. Lug'at maqolalar tarkibida frazeologizmlarni bu usulda berish o'quvchiga so'z ma'nosini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Buni quyida keltiriladigan misollardan yaqqol ko'rish mumkin.

Frazeologizm, ya'ni frazeologik birlik – ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'no jihatidan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llaniladigan, bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi [Lafasov, Oxunov 2005, 309]. Masalan, *kapalagi uchmoq, ko'ngli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir* va hokazo.

Frazeologizmlar sintaktik tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- birikmaga teng frazeologizmlar (*katta og'iz, ammamning buzog'i, tuyog'ini shiqillatmoq*);
- gapga teng frazeologizmlar (*yuzi yorug' bo'ldi, boshi osmonga yetdi, sirkasi suv ko'tarmaydi*).

Lekin biz «Asosu-l-balog'a»dagi frazeologizmlarni tahlil qilishda ularning sintaktik tuzilishiga emas, balki turlariga qarab berdik. Frazeologizmlarning uchta turi mavjud bo'lib, ular - *frazeologik chatishma, frazeologik butunlik, frazeologik qo'shilma*.

*Frazeologik chatishma*. Bunda frazeologizmning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi, frazeologizmdan anglashilgan ko'chma ma'no uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan izohlanmaydi [Lafasov, Oxunov 2005, 309]. O'zbek tilida *to'nini teskari kiymoq, oyog'ini qo'lga olmoq, boshini olib chiqib ketmoq* kabi frazeologizmlar bunga misol bo'ladi. «Asosu-l-balog'a»dan frazeologik chatishmaga ko'plab misollar mavjud. Masalan, *سعر* lug'at maqolasida bosh so'z ma'nolaridan biri *ضربه السعر* frazeologizm orqali izohlangan. Bu misolda *سعر*, ya'ni *issiq* so'zi ishtirok etib, *uni issiq urdi* frazeologizmi berilgan. Bu frazeologizm arablarda jazirama tunga nisbatan ishlatiladi.

*اكل* lug'at maqolasida *اكله رأس* frazeologizmi keltirilgan. Frazeologizm o'zbek tiliga *boshi yeyilgan* deb tarjima qilinadi. Bu yerda Mahmud Zamaxshariy *اي* (*ya'ni*) so'zidan keyin frazeologizm

qanday ma'no anglatishini bergan. Unga ko'ra, *boshi yeyilgan* iborasi *kam* degan ma'noda ishlatiladi. Frazeologik chatishma sifatida mazkur iboraning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlar ma'nosiga umuman bog'liq emas.

lug'at maqolasida bosh so'zning majoziy ma'nosini izohlashda سجم عن الامر frazeologizmidan foydalanilgan. Bu frazeologizmدا سجم, ya'ni *to'kib yubormoq* fe'li majoziy ma'noda ishlatilgan. Arab tilida *ishni to'kib yubordi* iborasi *ishni cho'zib yuribdi* degan ma'noni bildiradi.

Frazeologizmlarning birinchi turiga سرق lug'at maqolasidagi سرقنا ليلة من الشهر frazeologizmini misol sifatida keltirish mumkin. *Biz o'zning bir kechasini o'g'irladik* frazeologizmi ochiq joyda, tashqarida uxlab qolgan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

سرق السارق iborasi سرق lug'at maqolasidan olingan. Ushbu *o'g'ri o'g'irlandi* frazeologizmi o'zbek tilidagi *o'g'rini qaroqchi urdi* iborasiga mos keladi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, keltirilgan frazeologik chatishmalarning barchasida frazeologizmning asl ma'nosi uning tarkibida berilgan so'zlar bilan bog'liq emasligini ko'rish mumkin.

*Frazeologik butunlik.* Frazeologizmlarning ikkinchi turi *frazeologik butunlik* bo'lib, unda frazeologizmning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanadi [Lafasov, Oxunov 309, 2005]. O'zbek tilidagi *yog' tushsa yalagudek, yeng shimarmoq, xamirdan qil sug'urgandek, to'ydan oldin nog'ora chalmoq* kabi frazeologizmlar bunga misol bo'la oladi.

سجن lug'at maqolasida سجن الهم frazeologizmi berilgan. Mazkur *o'z xavotirini qamab qo'ydi* frazeologizmi arablarda *o'z xavotirini yashirdi* degan ma'noni beradi.

سرح هو منسرح من ثيابه frazeologizmi keltirilgan. Bu iborada انسرح VII bob fe'lining aniq daraja sifatdoshi ishtirok etgan. *U kiyimlaridan ozod bo'ldi* iborasi *yechinmoq* degan ma'noda ishlatiladi.

Frazeologik butunlikka misol qilib سقط lug'at maqolasidagi سقطت على الخبير سقطة frazeologizmini ham keltirish mumkin. *Mutaxassisda adashding* deb tarjima qilinadigan mazkur ibora o'zbek tilidagi *odamiga yo'liqdi* iborasiga ma'nodosh hisoblanadi.

ذهب دمه أدرج الرياح frazeologizmi درج lug'at maqolasida keltirilgan. *Uning harakatlari shamolga uchdi* iborasi bekor qilingan ishga nisbatan qo'llaniladi. Bu frazeologizm o'zbek tilidagi *hammasi bir tiyin bo'ldi* yoki *barchasi bir pul bo'ldi* degan iboralarga mos keladi.

*Frazeologik qo'shilma.* Frazeologizmlarning uchinchi turi bo'lib, bunda frazeologizm tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llaniladi, boshqasi esa o'z lug'aviy ma'nosini saqlaydi [Lafasov, Oxunov 2005, 309]. O'zbek tilida *gapning tuzi, qo'li gul, ishtahasi ochildi* kabi frazeologizmlar bunga misol bo'la oladi.

“Asosu-l-balog'a”dan quyidagilarni frazeologizmlarning uchinchi turiga misol qilib keltirish mumkin.

سفر lug'at maqolasida bosh so'z ma'nosini izohlash uchun سفر وجه مسفر frazeologizmidan foydalanilgan. Bunda سفر IV bob fe'lining aniq daraja sifatdoshi ishlatilgan bo'lib, ibora o'zbek tiliga *yonayotgan yuz* deb tarjima qilinadi. Mazkur frazeologizm xursand odamga nisbatan ishlatiladi. Frazeologik qo'shilma sifatida bu iborada وجه - yuz so'zi lug'aviy ma'noda, مسفر - yonayotgan so'zi esa ko'chma ma'noda ishlatilgan.

حشر lug'at maqolasida berilgan. حشر فلان في رأسه frazeologizmi falonchining boshi to'ldirilgan degan ibora boshi katta odamga nisbatan ishlatiladi. Bu yerda bosh so'zi lug'aviy, to'ldirilgan so'zi ko'chma ma'noda kelgan. Mazkur lug'at maqoladan yana bir frazeologizm: حشر فلان في بطنه. O'zbek tiliga *qorni to'ldirilgan* deb tarjima qilinadigan bu frazeologizm ham *qorni katta, qorin qo'ygan* degan ma'noda ishlatiladi.

برق عينية lug'at maqolasidan yana bir misol: برق عينية. Hayratdan ko'zlarini katta ochib, pirlpiratgan odamga nisbatan yuqoridagi *ko'zlari yondi* frazeologizmi ishlatiladi. Bu yerda ko'z so'zi haqiqiy, yonmoq so'zi majoziy ma'noda kelgan.

نفخ رجل منفوخ frazeologizmi نفخ lug'at maqolasidan olingan. Mazkur *puflab shishirilgan odam* iborasi qorni katta, semiz odamga nisbatan ishlatiladi. Bu frazeologizm o'zbek tilidagi *qorin qo'ygan* iborasiga to'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balog'a” asarida «Asosu-l-balog'a»da so'zlarning batafsil va mukammal izohini berish maqsadida tasdiqlovchi misollardan keng foydalangan. Bunda asos bo'lgan manbalar Qur'oni karim, hadisi shariflar, Mahmud Zamaxshariygacha va uning davrida yashab ijod etgan yetuk shoirlarning nazmiy asarlaridan olingan parchalar, frazeologizmlar, maqollar. Mazkur manbalar orasida frazeologizmlarning o'rne beqiyos. Ular lug'atning to'liqligi va uning leksik jihatdan boyligini ta'minlagan. Lug'atda frazeologizmlar yordamida so'zning qo'llanilish xususiyatlari ko'rsatib berilgan, izohlanayotgan so'zning stilistik, qolaversa, ma'no xususiyatlari ochib berilgan.

### **Адабиётлар**

- Аз-Замахшарий. 1998. Аса:су-л-бала:ға. Муҳаммад Босил Уйун ас-Суд умумий таҳрири остида. 1-ж. Байрут: Дару-л-кутуби-л-илмийа.
- Белкин, В. М. 1975. Арабская лексикология. Москва: Издательство Московского университета.
- Лафасов, Ў, Н.Охуннов 2005. Фразеологизм // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 9. Тўйчи Ҳофиз – Шаршара. Таҳрир ҳайати А. Азизхўжаев, Б. Аминов, М. Аминов ва б. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти.
- Рустамов, А. 1971. Маҳмуд Замахшарий. Тошкент: Фан.
- Филин, Ф.П. 1957. Заметки по лексикологии и лексикографии // Лексикографический сборник. В. 1. Москва: ГИС.
- ас-Самарий, Фозил Солиҳ. 1970. Ад-дирасату-н-наҳвийа ва-л-луғавийа инда-з-Замахшарий. Бағдод.
- Халифа, Ҳожи. 1893. Кашфу-з-зунун. Ж.1. Миср: Дору-с-саодат.

## **Mahmud Zamaxshari's "Asosu-l-balog'a" work and the application of phraseologisms in it**

Nigora Sulaymonova<sup>1</sup>

### **Abstract**

The article deals with Mahmud Zamakhshari's work "Asosu-l-baloga" and its unique place in Arabic lexicography. It contains unique innovations in the field of lexicography created by the scholar Zamakhshari. In particular, one of the innovations introduced by the author in the work "Asosu-l-baloga" is the placement of words in the dictionary in strict alphabetical order, taking into account all their core consonants. The introduction of this method made it much easier to use dictionaries at that time. Therefore, the scholar was recognized as the first lexicographer in Arabic lexicography to establish the alphabet system. In "Asosu-l-baloga" Mahmud Zamakhshari made another novelty. He gave the words in the dictionary without separating them from the sentences and phrases that were in use at that time. This method allowed for a comprehensive and detailed interpretation of word meanings. The sentences and phrases used

---

<sup>1</sup> Nigora A. Sulaymonova – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor. Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** sulaymonova@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0001-6575-8742

**For citation:** Sulaymonova, N.A. 2021. "Mahmud Zamaxshariy "Asosu-l-balog'a" work and the application of phraseologisms in it". *Uzbekistan: Language and culture* 1 (3): 115-124.

to explain the words come in handy for a thorough study of the linguistic features of that period, the rules contained in it.

The scholar also skillfully used a number of sources, including verses from the Qur'an, hadiths, and phraseological combinations, as illustrative material in interpreting keywords in dictionary articles in *Asosu-l-baloga*. The article deals with the phraseology used in the dictionary "*Asosu-l-baloga*" and classifies them by type. The Uzbek equivalents of the Arabic phraseology in the dictionary are given and analyzed.

**Keywords:** *Mahmud Zamakhshari, "Asosu-l-baloga", lexicography, annotated dictionary, dictionary article, foreword, commentary, illustrative material, phraseology, phraseological confusion, phraseological integrity, phraseological compound, Arabic, Uzbek.*

### **References**

- Az-Zamahshariy. 1998. *Asa:su-l-bala:gha*. Edited by Muhammad Basil Uyun as-Sud. V.1. Beirut: Daru-l-kutubi-l-ilmiiyya.
- Belkin V. M. 1975. *Arabskaya leksikologiya*. Moskva: Izdatelstvo Moskovskogo universiteta.
- Lafasov, O., N.Oxunov. 2005. *Phraseology // National Encyclopedia of Uzbekistan*. V.9. Toshkent: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House.
- Rustamov, A. 1971. *Mahmud Zamakhshari*. Toshkent: Fan.
- Filin, F.P. 1957. *Notes on lexicology and lexicography // Lexicographic collection*. V. 1. Moskva: GIS.
- as-Samaroiy, Fazil Salih. 1970. *Ad-dirasatu-n-nahviyya wa-l-lug'aviyya inda-z-Zamahshari*. Baghdad.
- Khalifa, Hoji. 1893. *Kashfu-z-zunun*. V.1. Egypt: Doru-s-saodat.